


"Ammofos-Maxam" Ajda "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazildi

// 02.12.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ammofos-maxam-ajda-ochiq-eshiklar-kuni-o-tkazildi>



"9-dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash" kuni munosabati bilan 25-noyabrdan 20-dekabrga qadar "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida Aksilkorrupsiya oyligi e'lon qilingan.



Mazkur oylik doirasida bugun "Ammofos-Maxam" AJda "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etildi. Unda korxonada rahbariyati hamda xodimlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va OAV vakillari ishtirok etishdi. Tadbirda korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarini joriy etish, halollik va shaffoflikni ta'minlash masalalari atroflicha muhokama qilindi.



Mazkur tadbir korrupsiyani oldini olish borasida xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirishga va tizimni takomillashtirishga qaratilgan muhim qadamlardan biri sifatida e'tirof etildi.



"Ammofos-Maxam" AJ Matbuot markazi